

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL


9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN’IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUVLARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIIY IQTISODIIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI

Irgashev Shavkatbek Turdiyevich

Toshkent shahar hokimining maslahatchisi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot O'zbekiston viloyatlari kesimida urbanizatsiya jarayonlari bilan ekologik-geologik holat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tahlilda demografik ko'rsatkichlar, aholi zichligi, ifloslantiruvchi moddalar hajmi va umr davomiyligi asosiy indikator sifatida tanlandi. Statistik va fazoviy yondashuvlar yordamida xavf va barqarorlik indekslari ishlab chiqildi. Natijalar ekologik yuklama demografik bosim bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot hududiy rejalashtirish va ekologik xavflarni baholashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, ekologik xavf, demografik bosim, indikatorlar, viloyatlar kesimi, indeks, rejalashtirish

Аннотация

В настоящем исследовании анализируется взаимосвязь между процессами урбанизации и эколого-геологической ситуацией на уровне регионов Узбекистана. В качестве основных индикаторов использованы плотность населения, продолжительность жизни, объем загрязняющих веществ и численность населения. С применением статистических и пространственных методов рассчитаны индексы риска и устойчивости. Результаты показали, что экологическая нагрузка тесно связана с демографическим давлением. Работа имеет практическую ценность для регионального планирования и оценки экологических рисков.

Ключевые слова: урбанизация, экологический риск, демографическое давление, индикаторы, регионы, индекс, планирование

Abstract

This study explores the relationship between urbanization processes and the ecological-geological situation across regions of Uzbekistan. Key indicators include population density, life expectancy, air pollution levels, and urban population. Using statistical and spatial approaches, risk and stability indices were developed. The results indicate a strong correlation between environmental pressure and demographic load. The research provides practical insights for regional planning and environmental risk assessment.

Keywords: urbanization, ecological risk, demographic pressure, indicators, regional analysis, index, planning

KIRISH

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda urbanizatsiya jarayoni ham izchil sur'atlarda kuchaymoqda. Bu esa yirik shaharlar va ular atrofidagi hududlarda aholi zichligining ortishiga, yer resurslaridan bosimli foydalanishga va ekologik yuklamaning keskin oshishiga olib kelmoqda. Aholi o'sishi va iqtisodiy markazlashuv, ayniqsa, transport, kommunal xizmatlar va sanoat ishlab chiqarishining jamlanishi bilan birga, tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ekologik-geologik xavfning shakllanishida aynan demografik bosim va infratuzilmaviy yuklama asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shahar va qishloq joylari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, sanitariya sharoitlari va tibbiy xizmatlar darajasining turlicha rivojlanishi ham ekologik nomutanosibliklarga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda. Ayrim hududlarda sanoatlashuv va transport oqimining ortishi, boshqalarda esa resurs tanqisligi yoki yer osti suvlari ifloslanish xavfi ekologik-geologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur holatni to'liq anglash va baholash uchun indikatorlarga asoslangan yondashuvlar zarur bo'lmoqda. Aholi zichligi, umr davomiyligi, o'lim va tug'ilish koeffitsiyenti, yer maydoni, shahar aholisi soni, ifloslantiruvchi moddalar hajmi kabi ko'rsatkichlar orqali ekologik-geologik xavf va barqarorlik darajasini aniqlash imkoniyati mavjud. Bunday indikatorlar tizimi asosida amalga oshirilgan tahlillar resurslarni boshqarish, ekologik xavflarning oldini olish va hududiy siyosatni asoslash uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu sababli, ushbu tadqiqot O'zbekiston viloyatlarida urbanizatsiya va ekologik-geologik holat o'rtasidagi real bog'liqlikni aniq raqamli tahlil asosida baholashga xizmat qiladi. Bu esa ilmiy jihatdan asoslangan, statistik ma'lumotlarga tayangan va amaliy qarorlar qabul qilish uchun foydali vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik-geologik muammolar va urbanizatsiya jarayonining bu omillarga ko'rsatuvchi ta'siri bugungi ilmiy muhitda alohida e'tibor markazida turibdi. O'zbekiston sharoitida bu muammolarni o'rganish, ularni hududiy kesimda tahlil qilish va zamonaviy metodlar asosida baholash ishlari yaqin yillarda jadal tus olgan. Numanova [3] va Ibragimov va Najmiddinova [4] shahar aglomeratsiyalari tarkibidagi ijtimoiy-demografik jarayonlarni mahalliy miqyosda chuqur tahlil qilgan bo'lib, ularning ishlari mazkur tadqiqot uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Urbanizatsiyaning ekologik xavfga bevosita ta'siri masalasida Trinder va Liu [7] kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar fazoviy tafovutlarning ifodaliligi va ularni raqamli modellash tirish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv tahlil

va natijalar bo'limida viloyatlar kesimida tavakkal zonalarini aniqlash uchun ishlatilgan fazoviy indikatorlar tanlovi va ularning og'irlik asosida baholanishiga ilmiy asos berdi.

Hamilton [9] va Chun [8] tomonidan taklif etilgan indikatorlararo bog'liqlik va indikator og'irliklarini hisoblash modellari orqali barqarorlik va xavf indekslarining shakllanishi chuqur asoslab berilgan. Ushbu yondashuv bizning tadqiqotda 4-rasm orqali ifodalangan ekologik barqarorlik darajasini hududlar bo'yicha farqlashda qo'llanildi.

O'zbekistonning o'ziga xos shahar-qishloq demografik farqlari Soliyev [2] tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ushbu farqlar (tug'ilish, o'lim va umr davomiyligi) bizning 3-rasmdagi taqqoslovchi grafikani tayyorlashda asosiy daliliy ma'lumotlar sifatida xizmat qildi. Bu farqlar urbanizatsiya darajasining aholining salomatligi va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlariga ta'sirini ko'rsatishda dolzarbdir.

Dai va boshqalar [5] ekologik-geologik yuklama bahosida demografik va tabiiy omillarni birgalikda tahlil qilish modelini taklif qilgan. Bu model bizning xavf indeksi ishlab chiqishda qo'llagan indikatorlar to'plamiga mos tushadi. Ular orasida aholi zichligi, ifloslantiruvchi moddalar hajmi va shahar aholisi soni asosiy mezon sifatida tanlangan.

Rees va Wackernagel [20] esa urban ekologik iz tushunchasini ilgari surib, demografik bosim ortishining barqarorlikka qanday xavf solishini konseptual nuqtai nazardan ochib bergan. Bu g'oya bizning tadqiqotda chiziqli regressiya asosida aholi zichligi va ifloslanish o'rtasidagi bog'liqlikni (5-rasm) aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, Wang va boshqalar [19] tomonidan keltirilgan PeerJ maqolasi mintaqaviy ekologik xavflarni statistik jihatdan aniqlashda foydali metodlarni ko'rsatadi.

Geotahlil va GIS asosida xavf hududlarini belgilash haqida Wahba va El-Hussiny [11], Degefu va Asefa [14] ishlarida GIS-AHP modellaridan foydalanilgan. Bizning tadqiqotda bu yondashuv xususilashtirilgan ko'rinishda tavakkal zonalarini fazoviy modellashtirishda qo'llanildi. Bu esa tahlil natijalarini vizual isbotlashda samarali vosita bo'ldi.

Ma'lumotlar manbasi sifatida stat.uz portali [21] rasmiy statistikasiga tayangan holda viloyatlar kesimida aholi soni, yer maydoni, ifloslantiruvchi moddalar hajmi va demografik ko'rsatkichlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar asosida normallashtirilgan ko'rsatkichlar, indekslar va fazoviy tahlillar aniq, tekshirilgan va ishonchli bo'lishiga erishildi.

METODOLOGIYA


Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimida urbanizatsiya va ekologik-geologik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun integratsiyalashgan

statistik va fazoviy tahlil yondashuvlari qo'llanildi. Asosiy indikatorlar sifatida aholi zichligi, ifloslantiruvchi moddalar hajmi, shahar aholisi soni, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi va yer maydoni tanlab olindi. Ko'rsatkichlar Min-Max normalizatsiyasi orqali solishtirma shaklga keltirildi va demografik bosim hamda ekologik yuklamani aks ettiruvchi xavf va barqarorlik indekslari hisoblab chiqildi. Korrelyatsion tahlil, regressiya modeli va grafik vizualizatsiyalar yordamida indikatorlar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlashtirildi. Shuningdek, shahar va qishloq demografik tafovutlari alohida baholandi. Yakuniy bosqichda kompozit indekslar asosida tavakkal zonalari va ekologik barqaror hududlar aniqlanib, ularning hududiy taqsimoti statistik asosda ifodalandi. Tahlilning barcha bosqichlari zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayangan holda bajarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimida urbanizatsiya jarayonlari va ekologik-geologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi asosida statistik va fazoviy ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi shakllantirilib, ular asosida tavakkal zonalari, demografik yuklama va ekologik barqarorlik darajalari baholandi.

Tahlil ishlari besh asosiy bosqichda amalga oshirildi. Har bir bosqichda real statistik ma'lumotlar, indeks tahlil usullari va vizual grafikalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.



1-rasm. Aholi zichligi va ekologik-geologik xavf darajasi (2023)¹

Tadqiqotning birinchi bosqichida aholi zichligi va ekologik xavf ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlashtirildi. Har bir viloyat bo'yicha aholi


¹ Muallif ishlanmasi

zichligi normallashtirildi va ekologik-geologik xavf indeksi bilan o‘zaro bog‘langan holda tahlil qilindi(1-rasm).

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, aholi zichligi ortgan sari ekologik xavf indeksi ham ortmoqda. Jumladan, zichligi yuqori bo‘lgan Toshkent, Farg‘ona va Andijon viloyatlari xavfli zona sifatida belgilandi. Bu holat infratuzilma yuklamasi, chiqindi oqimi va tabiiy resurslar tanqisligi kabi omillar bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, aholi zichligi ekologik-geologik xavf zonalarini belgilashda strategik mezonlardan biri sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Tahlilning navbatdagi bosqichida demografik va ekologik indikatorlar (aholi zichligi, shahar aholisi, ifloslantiruvchi moddalar hajmi) asosida integratsiyalashgan xavf indeksi ishlab chiqildi. Ushbu indeks 0 dan 1 gacha bo‘lgan oralikda normallashtirilib, tavakkal darajalarining hududlar kesimidagi taqsimoti aniqlandi.



2-rasm. Viloyatlar bo‘yicha ekologik-geologik xavf darajasi (2023)¹

Bu chizmada:


- Yuqori xavfli hududlar: Toshkent, Farg‘ona, Andijon.

¹ Muallif ishlanmasi

- Past xavfli zonalar esa: Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Xorazm.

Xavf indeksi shuni ko‘rsatadiki, aholining zich joylashuvi, sanoat faolligi va resurslardan haddan tashqari foydalanish xavfni kuchaytiradi. Aksincha, sanoati nisbatan kam rivojlangan va aholisi kam bo‘lgan viloyatlar ekologik jihatdan xavfsizroq hisoblanadi(2-rasm).

Shahar va qishloq joylaridagi demografik ko‘rsatkichlar orasidagi tafovutlar alohida baholandi. Umr davomiyligi, tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlari shahar-qishloq kontekstida taqqoslandi.



3-rasm. Shahar va qishloq demografik indikatorlarining taqqoslanmasi¹


- Umr davomiyligi: Shahar — 73.2 yil, Qishloq — 71.6 yil
- Tug‘ilish koeffitsiyenti: Qishloq — 23.4%, Shahar — 19.8%
- O‘lim koeffitsiyenti: Qishloq — 7.9%, Shahar — 6.4%

Ushbu tafovutlar tibbiy xizmat sifati, ta’lim va infratuzilmaning notekis rivojlanganligi bilan bog‘liq. Aynan qishloq joylarda sanitariya holatining sustligi va sog‘liqni saqlash tizimidagi cheklovlar bu statistik farqlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi(3-rasm).

Tadqiqot doirasida ekologik-demografik barqarorlikni baholash uchun kompozit indeks ishlab chiqildi. Quyidagi formula asosida hisoblash amalga oshirildi:

$$\text{Barqarorlik indeksi} = \text{Umr davomiyligi} - \frac{\text{Aholi zichligi} + \text{Ifloslanish} + \text{Shahar aholisi}}{3}$$


¹ Muallif ishlanmasi



4-rasm. Viloyatlar bo'yicha ekologik barqarorlik indeksi (2023)¹

- Yuqori barqarorlik: Qoraqalpog'iston, Navoiy, Xorazm
- Past barqarorlik: Toshkent, Andijon, Farg'ona

Mazkur indeks viloyatlarning ekologik "sog'lomligi"ni demografik va ifloslantiruvchi yuklama bilan uyg'un holatda baholash imkonini beradi(4-rasm).



5-rasm. Demografik bosim va ekologik yuklama o'rtasidagi bog'liqlik (2023)²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Shuningdek, bu yondashuv resurslarni muvozanatli rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlilning yakuniy bosqichida aholi soni (demografik bosim) va atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli regressiya orqali tahlil qilindi(5-rasm).

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, demografik bosim ortgan sari ifloslanish hajmi mutanosib ravishda oshib bormoqda. Ayniqsa, yirik shaharlarda transport va sanoat sektorlari orqali hosil bo'layotgan ifloslanish ekologik yuklamani keskin oshiradi.

Bu bog'liqlik ekologik muvozanatning bevosita urbanizatsiya darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston viloyatlari kesimida olib borilgan tahlillar natijasida aholining joylashuvi, sanoat faoliyati va ifloslanish darajasi o'rtasida yaqqol bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Demografik zichlik oshgan hududlarda ekologik xavf indeksi yuqori bo'lib chiqdi. Toshkent, Andijon va Farg'ona viloyatlari xavf darajasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega hududlar sifatida ajralib turadi. Qoraqalpog'iston, Navoiy va Xorazm viloyatlarida esa barqarorlik darajasi yuqori, xavf darajasi esa past ko'rsatkichda qayd etildi.

Tadqiqot davomida shahar va qishloq aholisi o'rtasida demografik farqlar kuzatildi. Shahar aholisi o'rtasida umr davomiyligi yuqoriroq, ammo tug'ilish darajasi pastroq. Qishloqlarda esa tug'ilish darajasi yuqori bo'lsa-da, o'lim koeffitsiyenti nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu sanitariya va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan bog'liq.

Grafik tahlillar shuni ko'rsatdiki, shahar aholisi soni ortgani sari ifloslantiruvchi moddalar hajmi ham ortmoqda. Bu holat ekologik yuklamaning demografik bosim bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Ekologik barqarorlik indeksi esa aholi zichligi, ifloslanish va infratuzilma yuklamasi kamaygan hududlarda yuqori bo'lmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ekologik xavf darajasi yuqori hududlarda ixtisoslashgan monitoring va nazorat tizimlarini tashkil qilish zarur. Bu hududlar uchun doimiy kuzatuv asosida ma'lumotlar yangilanib borilishi kerak.

2. Aholining muvozanatli joylashuvini ta'minlash uchun qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifati va ish o'rinlarini kengaytirish talab etiladi. Bu shahar aglomeratsiyalariga ortiqcha yuklamani kamaytiradi.

3. Ekologik barqaror hududlarda yashil infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak. Bu hududlarda toza energiya, chiqindilarni kamaytirish va havo sifatini saqlab qolish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

4. Demografik yuklama yuqori bo'lgan viloyatlarda sog'liqni saqlash va sanitariya tizimlari imkoniyatlarini kuchaytirish, ayniqsa qishloq joylarda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash zarur.

5. Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ekologik indikatorlar tizimini davlat rejalashtiruv va hududiy siyosatga integratsiya qilish kerak. Bu orqali tavakkal zonalar xaritalari asosida aniq qarorlar qabul qilish osonlashadi.

Ushbu takliflar ilmiy tahlillar natijalariga asoslangan bo'lib, ekologik xavflarni kamaytirish va hududiy muvozanatni mustahkamlashga qaratilgan amaliy choralarni ko'rsatadi. Tahlil asosida shakllangan indekslar va bog'liqliklar mahalliy va milliy darajadagi qaror qabul qiluvchi organlar uchun ishonchli ma'lumot bazasini taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ja'farov, O. (2025). Axloqiy inqiroz va global madaniyat. O'zbekiston axborot va madaniyat jurnali.

2. Soliyev, B. (2021). Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Namangan: NamDU.

3. Numanova, Z. (2024). Shahar aglomeratsiyalari va ularning rivojlanish xususiyatlari. Geografik tadqiqotlar.

4. Ibragimov, I. I., & Najmiddinova, G. O. (2024). Urbanizatsiyaning ta'siri shahar rivojlanishiga. Toshkent arxitektura qurilish universiteti ilmiy axboroti.

5. Dai, R., Xiao, C., Liang, X., Jia, L., Jia, Y., & Yao, J. (2025). Evaluation of ecological geological environment carrying capacity. Scientific Reports. <https://www.nature.com/articles/s41598-025-85761-1>

6. Chen, W., Zhang, X., & Liu, X. (2024). Ecosystem services and security pattern of Tianshan Mountains. GeoChina Journal.

7. Trinder, J., & Liu, Q. (2020). Assessing environmental impacts of urban growth using remote sensing. Geo-spatial Information Science, 23(2), 105–119.

8. Chun, L. (2020). Geo-ecological coordination and sustainability in Chongqing. Sustainable Cities and Society, 63, 102492.

9. Hamilton, H. (2015). Ten dimensions of environmental modeling. Environmental Modelling & Software, 66, 94–103.

10. Xu, K., Zhang, X., & Wang, Y. (2011). Urban construction suitability in Hangzhou. Computers, Environment and Urban Systems, 35(4), 307–315.

11. Wahba, M., & El-Hussiny, M. (2025). GIS-AHP-based construction site suitability assessment. Journal of Infrastructure Systems.

12. Shinwari, M. I., Ahmad, I., & Waseem, M. (2025). Groundwater contamination risk in Islamabad using GIS-DRASTIC. *Environmental Science and Pollution Research*.
13. Daneshvar, M. R., Bagheri, S., & Ayoubi, S. (2019). Urban sprawl and regional climate change in Mashhad. *Ecological Processes*, 8(1), 1–12.
14. Degefu, M., & Asefa, Y. (2024). Landfill site selection using AHP in Arerti. *Environmental Systems Research*.
15. Mohammed, Y., Ahmed, R., & Qadir, A. (2025). Groundwater recharge zones in NE Iraq. *Scientific Reports*.
16. Seto, K. C., Güneralp, B., & Hutyra, L. R. (2014). Global urban expansion and its environmental impacts. In *Urbanization, Biodiversity and Ecosystem Services* (pp. 23–38). Springer.
17. Batty, M. (2012). *Smart cities and big data: Concepts, technologies and applications*. Cambridge: MIT Press.
18. Beatley, T. (2011). *Biophilic cities: Integrating nature into urban design and planning*. Washington, DC: Island Press.
19. Wang, D., Liu, Y., Zhang, Y., & Li, Y. (2019). Ecological security pattern in Beijing-Tianjin-Hebei. *PeerJ*, 7, e7306.
20. Rees, W. E., & Wackernagel, M. (1996). Urban ecological footprints and sustainability. *Environmental Impact Assessment Review*, 16(4–6), 223–248.
21. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Stat.uz rasmiy portali. <https://stat.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**